# Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyalari sohiblariga guvohnomalar topshirildi

2020 yil 3 mart kuni Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligida 2020 yil uchun tayanch doktorantlar oʻrtasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyalari sohiblariga tegishli guvohnomalarni tantanali topshirish marosimi boʻlib oʻtdi. Unda Oliy va oʻrta taʼlim vazirligi rahbariyati, rektorlar, Prezidenti Davlat stipendiyalari sohiblari va ularning ilmiy rahbarlari ishtirok etishdi. 2020 yil uchun tayanch doktorantlar oʻrtasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyalari sohiblariga guvohnomalarni Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vaziri oʻrinbosari U.Begimkulov topshirdi. 5 ta yoʻnalish boʻyicha oʻtkazilgan tanlovda 28 ta oliy taʼlim va ilmiy-tadqiqot muassasalaridan 43 nafar nomzod qatnashdi.



Tanlov natijalariga koʻra, quyidagilar 2020 yil uchun tayanch doktorantlar oʻrtasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyalari sovrindorlari boʻlishdi:

1. Ijtimoiy-gumanitar fanlar, iqtisodiyot va huquq yoʻnalishida Karimov Nodir Raxmonqulovich – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti;
2. Qishloq va suv xoʻjaligi yoʻnalishida Eshmatov Sirojiddin Keldiyarovich – Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tayanch doktoranti;
3. Energetika, resurslar, sanoat yoʻnalishida Salijonova Shaxnozaxon Dilmurodovna – Toshkent kimyo-texnologiya instituti tayanch doktoranti;
4. Sogʻliqni saqlash, sport va ekologiya yoʻnalishida Niyazova Zebiniso Anvarovna – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti tayanch doktoranti;
5. Tabiiy fanlar, axborot texnologiyalari va boshqaruv yoʻnalishida Atamuratova Muxayyo Shavkatovna – Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti tayanch doktoranti.